



MECHANISMS FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN STUDENTS DURING PROBLEM-BASED LEARNING THROUGH AN AXIOLOGICAL APPROACH

Qaypenova Tazaxan Otenazarovna

Trainee Teacher: Nukus State Pedagogical Institute named after
Ajiniyaz Faculty of Pedagogy, Psychology and Creative Education
Department of General Pedagogy

Reymova Tursinay

Student of Group 1 "A", Pedagogy Education Program

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20455626>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2026

Accepted: 29th May 2026

Online: 30th May 2026

KEYWORDS

Axiological approach,
critical thinking,
professional formation,
values, professional
values, pedagogical
technologies, education,
higher education,
personal qualities,
competence, moral
education.

ABSTRACT

This article provides an in-depth analysis of the impact of an axiological approach on the professional development of students in the higher education system and the formation of their critical thinking within the process of problem-based learning. The paper highlights the role of values in the process of developing critical thinking, its theoretical and methodological foundations, and its pedagogical possibilities. The study develops innovative pedagogical technologies and methodologies aimed at forming professional values in students, and experimentally proves the mechanisms and effectiveness of their implementation in practice. The results obtained serve to prepare responsible, ethically principled, and professionally mature personnel who meet the demands of the modern labor market by harmoniously developing not only the knowledge and skills of graduates but also their moral and spiritual qualities.

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA MUOMMOLI TÁLIM JARAYONIDA TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Qaypenova Tazaxan Ótenazarovna

Ájiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Pedagogika
psixologiya va ijodiy tálim fakulteti "Umumiy pedagogika" kafedrası stajyor-oqituvchisi

Reymova Tursinay

1 «a» Pedagogika tálim yunalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20455626>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2026

Accepted: 29th May 2026

Online: 30th May 2026

KEYWORDS

Aksiologik yondashuv,
tanqidiy fikrlash, kasbiy
shakllanish, qadriyatlar,

ABSTRACT

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning kasbiy shakllanishiga, muammoli ta'lim jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga aksiologik yondashuvning ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Ishda tanqidiy fikrlashni shakllanish jarayonida qadriyatlarning o'rni, uning nazariy-metodologik asoslari va pedagogik



kasbiy qadriyatlar, pedagogik texnologiyalar, ta'lim, oliy ta'lim, shaxsiy fazilatlar, kompetensiya, axloqiy tarbiya.

imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda talabalarda kasbiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodikalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning amaliyotga joriy etish mexanizmlari hamda samaradorligi eksperimental tarzda isbotlangan. Olingan natijalar bitiruvchilarning nafaqat bilimlari va ko'nikmalarini, balki axloqiy-ma'naviy fazilatlarini ham uyg'un rivojlantirish orqali ularni zamonaviy mehnat bozorining talablariga javob beradigan mas'uliyatli, axloqiy prinsiplarga sodiq va professional yetuk kadrlar etib tayyorlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism: Ta'lim – bu shunchaki bilimlarni o'rganish emas, balki odamlarni fikrlashga o'rgatishdir”.

Albert Eynshteyn

Bugungi tezkor o'zgaruvchan global dunyoda har bir jamiyatning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligi uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan inson kapitalining sifati, xususan, mutaxassislarning kasbiy mahorati va ma'naviy qiyofasi bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat bilim va ko'nikmalarni berish, balki yosh avlodni jamiyatning axloqiy me'yorlari, umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda shaxsiy va kasbiy fazilatlarini uyg'un rivojlantirishdan iborat. Bu jarayonda talabalarning kasbiy shakllanishi markaziy o'rin egallaydi, chunki ular ertangi kunning professional kadrlarini tashkil etadi. Zamonaviy mehnat bozori mutaxassislardan faqat tor soha bilimlarini emas, balki yuqori darajadagi mas'uliyat, ijodkorlik, muloqotchanlik, qadriyatlarga sodiqlik va axloqiy prinsipiellik kabi shaxsiy-kasbiy fazilatlarini ham talab qilmoqda. Ana shunday sharoitda talabalarda nafaqat ilmiy-nazariy, balki qadriyatli

dunyoqarashni ham shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayoniga aksiologik yondashuvni integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Aksiologik yondashuv shaxsning qadriyatlar tizimini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uning kasbiy shakllanish jarayonida shaxsiy ma'no, motivatsiya va axloqiy yo'nalishni ta'minlaydi. Qadriyatlar shaxsning ichki kompas vazifasini o'tab, uning kasbiy faoliyatidagi tanlovlari va qarorlariga asos bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Oliy ta'lim tizimida talabalarning kasbiy shakllanishiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ularda ko'pincha bilishga yo'naltirilgan va kompetentlikka asoslangan modellar ustuvorlik qiladi. Biroq, mutaxassisning shaxsiy-axloqiy va qadriyatli komponentlariga yetarlicha e'tibor berilmaganligi, bitiruvchilarning kasbiy faoliyatida duch kelayotgan axloqiy dilemmalar, kasbga nisbatan mas'uliyatsizlik yoki shaxsiy qadriyatlar tizimining sustligi kabi muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Aksiologik yondashuv (qadriyatli yondashuv) asosida muammoli ta'lim talabalarda tanqidiy fikrlashni



shakllantirishning samarali mexanizmi bo'lib, u bilimni shaxsiy qadriyatga aylantirishga undaydi. Bu jarayon muammoli vaziyatlar, bahsli muhokamalar va refleksiv tahlil orqali talabani ijodiy, mustaqil va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Aksiologik yondashuvda tanqidiy fikrlashni shakllantirish mexanizmlari: Muammoli vaziyatlar yaratish (Kognitiv mexanizm): Talabaga tayyor bilim berish o'rniga, ziddiyatli, yechimi noaniq vaziyatni taqdim etish. Bu ularni "nima uchun?" va "qanday?" savollari orqali muammoning mohiyatini tahlil qilishga majbur qiladi. Aksiologik ziddiyatni yuzaga keltirish (Motivatsion mexanizm): O'quv muammosini talabani shaxsiy dunyoqarashi, axloqiy va kasbiy qadriyatlari bilan to'qnashtirish. Bu ularni bilimni faqat yodlash emas, balki baholash va tanqidiy tahlil qilishga undaydi. Mantiqiy bahslar va dialogik usullar (Kommunikativ mexanizm): "Aqliy hujum", debatlar, davra suhbatlari orqali har xil nuqtai nazarlarni taqqoslash va o'z pozitsiyasini dalillashga o'rgatish. Refleksiv tahlil (Baholash mexanizmi): Talabalarning o'z fikrlash jarayonini va qabul qilgan qarorlarini qayta tahlil qilishlari, ya'ni "men nima uchun bunday o'yladim?" degan savolga javob izlashlari orqali tanqidiy fikrlashni mustahkamlash. Interaktiv va loyihaviy ta'lim (Faoliyatli mexanizm): Muammoni guruhda yechish, loyihalar ustida ishlash orqali jamoaviy fikrlash va hamkorlikda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Tanqidiy fikrlash" tushunchasi XX-asr o'rtalarida pedagogika faniga kirib kelgan. Birinchilardan bolib tanqidiy fikrlash

atamasi K.Popper tomonidan ishlatilgan. O'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Fikrlashni rivojlantirish uchun mashqlar ham mavjud bo'lib ularga quyidagilarni kiritsak bo'ladi:

1. "Nega?" texnikasi Har qanday voqea yoki ma'lumotga nisbatan besh marta "Nega?" savolini bering. Masalan: "Nega bu hodisa sodir bo'ldi?", "Bu hodisaning oqibatlarini qanday?" Bu mashq muammoni chuqurroq tahlil qilishni o'rgatadi.

2. Tahlil mashqlari Har kuni biron bir fikr yoki g'oyaning ijobiy va salbiy tomonlarini yozib chiqing. Bu qiyinchilik va imkoniyatlarni yanada aniqroq ko'rishga yordam beradi.

3. Boshqotirmali o'yinlar Sudoku, shaxmat, jumboqli savollar va shunga o'xshash mantiqiy o'yinlarni o'ynab turing. Bu aqlingizni charxlaydi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Pedagogika" bo'lajak o'qituvchilariga ta'lim berish asosan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan zaruriy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishishga pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarida kelajakdagi pedagogik faoliyatida yuzaga keladigan kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatini hamda tanqidiy tafakkurini rivojlantirish yordam beradi. Pedagogika fanini o'qitishda kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyati va tashabbuskorligi qisman shakllanadi.



Pedagogika fani, avvalo, talabalarga umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni o'rganish uchun zarur bo'lgan bilimlarni singdiradi, ularning asosiy maqsadi tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdir. Dars jarayonida talabani tanqidiy (tahliliy) fikrining shakllantirishning uch bosqich ta'minlaydi:

1. Yo'llanma (da'vat)- bu darsning shunday bosqichiki, bunda talabalar mavzu bo'yicha belgilar haqida o'ylashga mavzuga doir savollarni berishga va o'rganish uchun vazifalar qo'yishga yo'naltiradi;

2. Ahamiyatni anglash - bu darsning shunday bosqichiki, bunda talabalar bilimlarni izlaydilar va o'rganadilar shu bilan birga o'z faoliyati natijasida ahamiyatini anglaydilar;

3. Fikrlash (mulohaza qilish)- darsning shunday bosqichiki, bunda talabalar o'zlari to'qnashgan fikrlarga va anglab yetgan ma'nolarga qaytadilar, shu bilan savollar beradilar. Talqin etadilar, munozara qiladilar. Mantiqiy fikrlashning ikki turini ajratish mumkin: induksiya va deduksiya. Deduksiya — rasmiy shakllantirish qoidalaridan foydalangan holda, argumentning asosiy tuzilishidan xulosa chiqarishdir. Masalan: X — shaxs (preza), u holda hamma odamlarning yuzi (preza) bor, shuning uchun X ham yuzga ega (mantiqiy xulosa).

Bundan tashqari ta'lim jarayonida turli xil metodlar qatorida ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid turli xil usullar mavjud bo'lib ulardan biri muammoli ta'lim bu mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, izlanish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlar, yechim topish, bilishga qiziqish, ehtiyoj, usullar qo'llaniladigan bir yangicha tizimdir.

Aksiologik (qadriyatga oid) yondashuv bo'yicha savollar (Likert shkalasi: 1 – umuman rozi emasman, 5 – to'liq rozi)

1. Ta'lim jarayonida qadriyatlar (halollik, hurmat, mas'uliyat) muhim o'rin tutadi.
2. Men muammoli vaziyatlarda axloqiy jihatlarni hisobga olaman.
3. O'qituvchilar muammoli topshiriqlarda qadriyatlarni muhokama qilishga undaydi.
4. Guruhdagi fikrlar xilma-xilligiga hurmat bilan yondashaman.
5. Qaror qabul qilishda ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlarimni hisobga olaman.

Muammoli ta'lim jarayoni bo'yicha savollar

1. Darslarda muammoli vaziyatlar (case, muammo, savol) tez-tez qo'llaniladi.
2. Muammoli topshiriqlar meni mustaqil fikrlashga majbur qiladi.
3. Guruhda muammo yechish jarayonida faol ishtirok etaman.
4. Muammoli vazifalar real hayot bilan bog'liq bo'ladi.
5. O'qituvchi muammoni yechishda yo'naltiruvchi savollar beradi.
6. Muammoli ta'lim mening bilimlarimni chuqurlashtiradi.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari bo'yicha savollar

1. Men berilgan ma'lumotlarni tahlil qila olaman.
2. Turli nuqtai nazarlarni solishtirib baholayman.
3. Dalillarga asoslanib xulosa chiqaraman.
4. Har qanday fikrni tekshirib ko'rishga harakat qilaman.
5. Muammoga bir nechta yechim variantlarini taklif qila olaman.



6. O'z fikrimni asoslab bera olaman.
7. Noto'g'ri yoki asossiz fikrlarni aniqlay olaman.


Ochiq savollar (sifatli tahlil uchun)

1. Muammoli ta'lim sizning fikrlash tarzingizga qanday ta'sir qildi?
2. Qadriyatlar asosida qaror qabul qilish siz uchun qanchalik muhim? Misol keltiring.

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun darslarda yana nimalar qo'shish kerak deb o'ylaysiz?

4. Siz uchun eng qiyin muammoli vazifa qanday bo'lgan va nima uchun?

Bu savolnomalar bilan Ajinyoz nomidagi NDPI talabalarida sinov ishlarini olib bordik.



Muammoli ta'limning afzalliklari

Ta'lim jarayoni qiziqarli va motivatsion bo'ladi— o'quvchilar "o'zim yechim topaman" degan yondashuv bilan ishlaydi.

Fikr yuritish, tanqidiy fikrlash va izlanish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Bilim passiv qabul qilinishdan ko'ra chuqurroq o'zlashtiriladi — muammoni yechish jarayonida o'rganilgan ma'lumotlar kontekstga bog'lanadi.

Hamkorlik, kommunikatsiya va guruhda ishlash ko'nikmalaririvojlanadi.

Moslashtirilgan o'qitish — har bir o'quvchining ehtiyojiga qarab, o'rganish yo'llari va tezliklari farqlanishi mumkin.

Talabalarning tanqidiy fikrlashini individual ta'lim tamoyillarini tashkil etish asosida rivojlantirishda quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanildi: differensial ta'lim

texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, evristik texnologiya. Bularni yanada rivojlantirib ta'limga tadbiq qilish talabalarda tanqidiy fikrlash, aksiologik jihatdan yanada samarali tarzda ta'limni olib borishga yordam beradi. Sharq mutafakkirlari ijodi, qadimiy voqealar tahlili va madaniy qadriyatlarimiz asosida ularni tarbiyalash, dostonlar va xalq og'zaki ijodi ta'limda muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta'lim jarayonida ularning aksiologik fikrlashlarini ham rivojlantirib tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish nafaqat tayyor bilimlarni egallash balki o'zlari tomonidan rivojlanishga yo'l ochadi. Chunki hozirgi kunda ko'plab talabalarning qiziqishini tortish, internet texnologiyalaridagi chalg'ituvchi narsalardan uzoqlashtirish ma'naviy



qadriyatlarimiz asosida yanada bilimga
chanqoq komil inson sifatida

shakllantirish muhim ahamiyat kasb
etadi.

References:

1. Стоунер Т. Информационная революция: наука, экономика, технологии. - М., 1993. -С.335.
2. Толковый словарь узбекского языка. Том 1-Т.Национальная энциклопедия Узбекистана, 2006-19 с.
3. Мои слители _ Греция. Лошадь мифа к логике. - Москва: Эксмо -пресс, Харьков: Фолио, 1998. - С.774.
4. Shukhratovich, Khaitov Bekhzod. "Innovative Methods of Developing Communicative Competence of the Head of Educational Institution." American Journal of Social and Humanitarian Research 3.5 (2022): 196-202.
5. Haitov, Bekzod. "Methods of Improving Communicative Competence of the Head of Educational Institution." Scienceweb academic papers collection (2022).